



Umumta'lim va Ixtisoslashtirilgan maktablarning 2024-2025 o'quv yili 7-sinf o'quvchilarining geografiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va topshiriqlar varianti

7-___ sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 50)

II CHORAK

II BSB

I variant


I. Test

1. Tush paytlariga borib qizigan va namga to'yingan havo yuqoriga ko'tarilib, bulut hosil qiladi. Tushdan keyin esa kuchli yom'ir yog'adi. Ushbu xususiyat Afrikaning qaysi iqlim mintaqasi uchun xos?
A)ekvatorial B)subekvatorial C)tropik D)subtropik
2. Oqmas ko'llarni belgilang?
A)Chad, Rukva B)Viktoriya, Rudolf C)Tanganika, Rukva D)Nyosa, Chad
3. Noyob velvechiya o'simligi Afrika materigining qaysi hududida o'sadi?
A)Sahroi Kabir cho'lida B)O'rta dengiz sohillarida
C)Madagaskar orolida D)Namib cho'lida
4. Qimmatbaho mebellar ishlanadigan qizil daraxt, yog' olinadigan palma seyba va muskat daraxtlari kauchuk olinadigan daraxtlar Afrikaning qaysi tabiiy geografik o'lkasi uchun xos?
A)Shimoliy Afrika B)Markaziy Afrika
C)Sharqiy Afrika D)Janubiy Afrika
5. Savannalarda yashovchi qaysi hayvonning 40 ta turi bor?
A)pavian B)qoplon C)antilopa D)zebra

1	2	3	4	5

II. Xaritalar bilan ishlash.

1. Raqamlar bilan materikning qaysi iqlim mintaqalari tasvirlangan?





1	
2	
3	
4	
5	
6	
7	

2.A) Qaysi mintqa materikning chekka shimoli va chekka janubida tarkib topgan?


Javob: _____

B) Daryoning kattagina qismi qurg'ochil yerlardan oqib o'tadi. Shuning uchun daryo suvi yerlarni sug'orishdagi ahamiyati katta. Shu maqsadda daryoga to'g'onlar qurilgan, kanallar qazib, suv chiqarilgan. Daryo Atlantika okeani havzasiga tegishli. Gap qaysi daryo haqida ketmoqda?


Javob: _____

III. Geografik joy nomlarini toping.

Tog' nomi	1
Tog' nomi	2
Tog' nomi	3
Cho'l nomi	4
Daryo nomi	5
Cho'l nomi	6
Ko'l nomi	7
Ko'l nomi	8
Daryo nomi	9
Daryo nomi	10




IV. Quyidagi rasmda samalyot A shahardan B shaharga uchgan bo'lsa qaysi tabiat zonalarining ustidan uchganini tartib bilan yozing.



Javob: _____

V. Savollarga javob yozing.

1) Quyidagi holatlarni kuzating. Qaysi variantda ekvatorial iqlim mintaqasiga tegishli harorat va yog'in miqdori berilganligini aniqlang va javobingizni asoslang.



Izoh: _____

2) Nima uchun ekvatorial oʻrmonlar zonasida qizil ferralit tuproqlar shakllangan?

Javob: _____

